**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**TARIX YONALISHI**

**IV BOSQICH TALABASI**

**ALISHEROV MUHAMMADAYUBXONNING**

# SHIMOLIY FARG'ONA HUDUDIDA JOYLASHGANARXEOLOGIK YODGORLIKLARDA OLIB BORILGAN YANGI TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI

**MAVZUSIDA**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**NAMANGAN – 2019**

## MUNDARIJA:

**KIRISH……………………………………………………………………..** 3

**I BOB. SHIMOLIY FARG'ONA HUDUDIDA JOYLASHGAN ARXEOLOGIK YODGORLIKLARGA UMUMIY TAVSIF……………….** 6

1.1. Dahyakota va Bibiona arxeologik yodgorliklari……………………….. 6

1.2. Munchoqtepa va Mug'tepa yodgorliklarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar……………………………………………………………………... 14

**II BOB. AXSIKENT ARXEOLOGIK YODGORLIGI HAQIDA……..** 32

2.1. 1980–2016-yillar oralig'ida Axsikent yodgorligidagi arxeologik izlanishlar………………………………………………………………………… 32

2.2. 2016–2019 yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar……………………………. 41

**XULOSA…………………………………………………………………** 45

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI……………………** 49

# KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi**. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng barcha soha kabi tarix fani, xususan, arxeologiya ilmida ham muhim o'zgarish va rivojlanish amalga oshdi. Boy o'tmishimizni, moddiy, ma'naviy madaniyatimizni asrab avaylash, o'rganish va uni kelajak avlodga yetkazishdek sharafli vazifa davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Islom svilizatsiya markazi qurilishi bilan tanishar ekan, "Hamma o'z tarixini ulug'laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz xalqimizga dunyoga yetkaza bilishimiz kerak"[1] – degan edi.

Jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar muhim o'rin tutadi. Shu sababli uning rivojlanish yo'nalishlarini mukammal o'rganish va ilmiy tahlil etish zarurdir. Shuni hisobga olgan holda o'zbek davlatchiligi taraqqqiyotini yoritishda o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan arxeologiya sohasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda arxeologiya sohasida salmoqli ishlarni amalga oshirildi. Tariximizga oid ko'plab arxeologik yodgorliklar o'rganildi. Hozirgi kunda O'zbekiston respublikasi hududida 30 ga yaqin arxeologik guruhlar ilmiy izlanishlar olib borish maqsadida har yilda bir oy va undan ko'p muddat davomida dala-qazuv mavsumida bo'lmoqdalar. Albatta, bu tadqiqotlar natijasida minglab o'tmish tariximiz tilsiz guvohlar-moddiy madaniyat ashyolari qo'lga kiritilmoqda. Ba'zida ularni arxeologiya faniga olib kirish, o'rganish va xulosa qilish uchun yillar kerak bo'ladi[2].

Shimoliy Farg'ona hududidagi yodgorliklarini tarixini arxeologik jihatdan tadqiq etish quyidagi sabablarga ko'ra hozirgi kunda dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi:

**birinchidan**, Shimoliy Farg'ona hududi nafaqat O'zbekistonning, balki jahonning boshqa hududlari singari insoniyat qadimdan yashab kelayotgan makonlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu qadimiy hudud jahon

---

[1] Shavkat Mirziyoyev.Islom svilizatsiyasi markazi qurilishi bilan tanishuvi // www.kun.uz.

[2] Матбобоев Б. Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти (V–VIII асрлар археологик манбаларининг тарихий таҳлили асосида). Тарих фанлари доктори диссертацияси. – Тошкент, 2009. – Б. 29.

sivilizatsiyasida o'ziga xos o'ringa ega ekanligini moddiy – arxeologik jihatdan yana bir bor tasdiqlashi shubhasizdir;

**ikkinchidan**, hozirgi davrga qadar Shimoliy Farg'ona yodgorliklari yaxlit bir ilmiy muammo sifatida arxeologik materiallar asosida yetarli darajada tadqiq qilinmagan;

**uchinchidan**, Shimoliy Farg'ona arxeologik yodgorliklarini o'rganilishi butun dunyoga tariximizni yoritib berishdi asosli manba bo'la olishi bu masalaning dolzarbligini belgilab beradi;

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining davriy chegarasi.** Tadqiqot ishi XX asrning 80-yillaridan XXI asrning boshlarida Shimoliy Farg'ona hududida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar va ularning natijalari haqida ma'lumot beradi.

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining o`rganilishi darajasi.** O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so`ng, o`zbek davlatchiligi tarixini o`rganish Prezident tashabbusi bilan davlat siyosati darajasiga ko`tarildi. Tadqiqotchilar tomonidan qadimgi tarixning asosiy xususiyatlari va davlatchilikning vujudga kelishining arxeologik omillari masalalari tahlil etilmoqda. Shimoliy Farg'ona hududida arxeologik izlanishlar boshlanganligiga 120 yildan oshdi. Shu davr oralig'ida sovet davrida faoliyat ko'rsatgan M. E. Masson, A. N. Bernshtam, V. V. Bartold, Ya. G'. Gulomov, mustaqillikka erishganimizdan keyin tadqiqotchi olimlardan B. Matboboyev, A. Asqarov, A. Anorboyev va Sh. Nasriddinov kabi tadqiqotchi olimlar o'z ilmiy izlanishlarini, tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar[3].

**Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishining maqsadi Shimoliy Farg'ona hududida XX asrning 80-yillaridan XIX

---

[3] Бернштам А. М. Древняя Фергана. – Ташкент, 1951; Заднепровский Ю.А. Археологические памятники южных районов Ошской области (середина I тыс. до н.э. – середина I тыс. н.э.). Фрунзе, 1960; Матбобоев Б. Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти (V–VIII асрлар археологик манбаларининг тарихий таҳлили асосида). Тарих фанлари доктори диссертацияси. – Тошкент, 2009; Анорбоев А., Исломов Ў., Матбобоев Б. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона. – Тошкент: Фан, 2001; Ҳомидов Ҳ., Аширов А. Косонсой тарихи. – Наманган, 2012; Насриддинов Ш., Саидов М. Ахсикентнинг тарихий топографияси / Фарғона водийси тарихининг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Фарғона, 2012; Анарбаев А. А. Изучение одного из ремесленных кварталов средневекового Ахсикента // ИМКУ. – Самарканд, 1999.

asrning boshlarida arxeologik yodgorliklarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning yutuqlari va natijalarini umumlashtirib tahlil qilishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ish doirasida quyidagi ilmiy vazifalarni hal etish rejalashtirilgan:

- Shimoliy Farg’ona hududidagi arxeologik yodgorliklarning joylashgan o’rni va ahvolini tahlil qilish;
- XX asrning 80 yillari – XXI asr boshlarida o’tkazilgan arxeologik - ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish;
- Arxeologik yodgorliklarning o’rgangan olimlar va tadqiqotchilar ishlari darajasi aniqlash;
- Arxeologik yodgorliklarda amalga oshirilgan tadqiqotlarining qanchalik darajada yoritilganligi;
- Izlanishlar bo’yicha natijalarni jamlab, umumiy xulosa berish.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishi yangi e`lon qilingan arxeologik tadqiqot ishlari va ularning natijalarini keltirilgan ma`lumotlar bilan boyitilgan bo`lib, unda oliy o`quv yurtlarida tarix va arxeologiya yo’nalishlarida talabalar uchun dars jarayonida, maxsus kurslar va seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy uslubiy asoslari.** Tadqiqotning nazariy-uslubiy asosini ishlab chiqishda O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov va O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan e’lon qilingan “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish to’g’risidagi Xarakatlar strategiyasi“, ilmiy-nazariy ko’rsatmalar, turli tadbir, marosim va tantanalarida so’zlagan nutqlari, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlarida belgilangan muhim vazifalar haqidagi ko’rsatmalardan foydalanildi.

**Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ish o’z oldiga qo’ygan maqsad va vazifalarni inobatga olgan holda kirish, ikkita bob va to’rtta bo’lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati, ilovalardan iborat.

# I BOB. SHIMOLIY FARG'ONA HUDUDIDA JOYLASHGAN ARXEOLOGIK YODGORLIKLARGA UMUMIY TAVSIF

## 1.1. Dahyakota va Bibiona arxeologik yodgorliklari

O'zbekiston dunyodagi eng qadimdan odamlar yashab kelgan, sivilizatsiya shakllangan hududlardan biri hisoblanadi. Albatta, yurtimiz hududida ilk tamaddun shakllanishi o'ziga xos iqlim sharoitlari, qulay geografik hududlar egaligi bilan izohlasak bo'ladi. Inson paydo bo'lib, aqliy rivojlangani sari o'zi uchun qulay turmush sharoitida yashashga intilib keladi. Daryo bo'ylari, hosildor hududlarda o'rnashib yashashni boshlaydi. Xususan, Farg'ona vodiysi ham qulay geografik joylashuvi, hosildor va unumdor yerlari bilan ajralib turadi. Farg'ona vodiysida shaharlarning gullab-yashnashida Buyuk ipak yo'lining ham ahamiyati katta bo'lgani ma'lum.

Keyingi paytlarda O'rta Osiyoda shaharlari tarixi borasida katta ishlar olib borayotgan akademik A. A. Asqarov va tarix fanlari doktori T. Shirinovlarning xulosalariga ko'ra, Farg'ona vodiysida shaharlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi butun O'rta Osiyodagi kabi umumiy xususiyatlar bilan birga o'ziga xos tomonlarga ham egadir. Atrofi tabiiy ravishda o'ralgan vodiy qisman umumiy jarayonlardan yiroqroq bo'lgan. Uzoq yillar olib borilgan arxeologik tadqiqotlarga ko'ra vodiyda ilk shaharlar paydo bo'lishi boshqa joylardagidan, aytaylik, Baqtriyadagidan keyinroq ro'y bergan. Qadimgi shahar belgilari ham boshqa mintaqalarnikidan kam bo'lsada farq qiladi[4].

I. A. Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli asarida olg'a surilgan g'oyalar o'zbek xalqi va uning davlatchilik tarixining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. "O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi... Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas... Davlatimiz, millatimizning haqqoniy ilmiy tarixini yaratish keng jamoatchiligimiz uchun g'oyat muhim va dolzarb masalaga aylanishi lozim"[5].

---

[4] Юсупов И., Мирзаалиев Э. Наманган шаҳри тарихидан лавхалар. – Наманган, 2010. – Б. 11.
[5] Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 12.

Ta’kid etilgan hujjatlarning muhim tomonlaridan biri – ularda mamlakatimiz hududida eng qadimgi zamonlardan to hozirgacha bo’lgan davlatchilik tarixi va uning bosqichlarini, shu xududda yashagan xalqlarning siyosiy, ijtimoiy - iqtisodiy, madaniy va ma’naviy hayotini keng va chuqur o’rganish uchun qulay shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratib berildi. Jumladan, o’zbek xalqining ko’hna dehqonchilik madaniyati, uning ilk markazlaridan biri bo’lmish Farg’ona vodiysi tarixini o’rganishga ham katta ahamiyat berildi[6].

Xususan, Shimoliy Farg’onada joylashgan arxeologik obe’ktlardan biri Dahyakota hisoblanadi. Arxeologik-tadqiqotchilar tomonidan Namangan viloyati Uychi tumani Jiydakapa qishloq fuqarolar yig’ini, Dahyakota qishlog’ida yashovchi A.Hakimovning hovlisidan bino poydevori qoldiqlari topildi. Bu inshoot taxminan IX-XI asrlarga tegishli ekanligi aniqlandi. Bu ishlarda arxeolog olim A.Anorboev va Shukurullo Nasriddinovlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Izlanish dastlabki natijalarga ko’ra, bu inshoot qoldiqlari haqiqatan ham qurilgan davri IX–XI asrlarga mansub hammom qoldiqlari ekanligi ma’lum bo’ldi Bu yerdan hozirgi kungacha saqlanib qolgan hammomning uch xonasi ochib o’rganildi[7].

IX–XII asrlarga kelib, Markaziy Osiyo me`morlik san`ati yangi bosqichga ko`tarildi. Markaziy Osiyoning ko`pgina me`morlik yodgorliklari islom dini xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qurila boshlangan. Qurilish ( me`morchilik ) san`ati ancha takomillashgan. Ayniqsa, pishiq g`ishtdan keng ko`lamda foydalana boshlandi. Shaharlarda saroylar, masjidlar, xonaqohlar, madrasalar va minoralar, tim va sardobalar qurilgan. Ayniqsa, naqshinkor mehmonxonalar, ko`rkam va so`lim istirohat bog`lari qurish avj olgan. IX–X asrlar me`morchiligining yana bir xususiyati shahar markazi, shahristonlarning vujudga kelishidir. Ya`ni shahar markazida turli saroylar, maqbaralar, madrasa va masjidlar, yirik bozorlar, karvonsaroylar va savdo rastalarining qurilganligidir. XI–XII asrlarda hokimiyat tepasiga Qoraxoniylar va Saljuqiylar keldi. Iqtisodiy-madaniy taraqqiyot natijasida

[6] Матбобоев Б. Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти....... – Б. 5.
[7] Рўзинов Б., Ражабова С ва бошқ. Наманган вилояти маданий мероси. – Наманган, – 2013. – Б. 26.

shaharlar o'z qiyofasini o'zgartirdi. Yirik-yirik inshootlar qurila boshlandi. Ayniqsa, pishiq g'ishtdan ravoqlar va gumbazlar qurilishi an'anaga aylandi[8].

Demak, Dahyakota qishlog'idan bunday jamoat hammomining topilishi uning atrofida aholi guzari, masjid, madrasa bo'lganligini tahmin qilishimiz mumkin bo'ladi. IX-XI asrlar shaharsozligi islom olamida faqatgina yirik markazlashgan shaharlar markazida ilm-fan, savdo-sotiq va ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish maqsadida talabalar uchun madrasalar qurilgan. Shu bilan bir qatorda madrasa atrofida bozor va hunarmandlar rastalari hammasi bir majmua bo'lgan. Ushbu joydan o'sha davrga oid Somoniy va Qoraxoniylar davrida zarb etilgan chaqa tangalar ham topilishi esa aholi orasida savdo aloqalari rivojlanganligini bildiradi. Bu esa bu hudud savdo markazi bo'lgan shahar bo'lganligini ham tahmin qilishimiz mumkin.

Yana bir muhim topilma esa kamdan kam ishlatilgan 37x37x4 sm o'lchamdagi pishiq g'isht hamda 30x14x4 sm o'lchamdagi g'isht namunalari bilan ishlangan poydevor va devor qoldiqlaridir. Bu yerda turli uslubda ishlangan sirli sopol idishlar, tigel parchalari, shisha siniqlari, sopol quvur siniqlari, mis buyum qoldiqlari va ularning siniqlari ham uchradi. G'ishtlarning maxsus tayyorlangan qir qorishmasi bilan urilgan[9].

Bu topilgan topilmalarni, ya'ni o'txona yo'lagidan olingan qurum, qir qorishmasi va boshqa buyumlarni NamDU professori Sh.Abdullaev, katta o'qituvchi F.Hoshimovlar tahlil ishlarini olib bordilar. Birinchi tajribada olingan xlorid kislotali eritmalarni qayta tahlil qilish natijasida qaysi analitik guruh kationi borligi ma'lum bo'ldi.

Bu topilmalar Daxyakota qishlog'ining IX-XII asrlarda tarixchilar tomonidan aytib o'tilgan Farg'ona vodiysidagi 70 dan ortiq turli katta-kichik shahar va kentlarning biri ekanligiga ishora qiladi. Shu kabi hammom Axsikentda ham topilgan, lekin uning ishlash usuli boshqacharoq bo'lgan. Hozirgi kunda ham o'z faoliyatini olib borayotgan Kosonsoy shahridagi X-XII asrlarga mansub

---

[8] Yusupov A. O'zbekiston ma'daniyati tarixi / O'quv-uslubiy qo'llanma. – Qo'qon, 2014. – B. 114.

[9] Исомиддинов М. Х. Фарғона водийси археологиясининг айрим муаммолари ( Фарғона водийси тарихининг долзарб муаммолари ) / Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Фарғона, 2012. – Б. 7–11.

gungalak yer osti hammomi Farg'ona vodiysidagi ajdodlarimizning ilm saviyasi va madaniyatining yuksak bo'lganligidan dalolat beradi. O'sha davrdagi me'mor hammomning mo'tadilligini saqlash, ya'ni issiqlikni isrof qilmaslik maqsadida uni yer ostiga qurgan. Uni bir ozgina xas-hashaklar bilan isitishgan. Namangan shahridagi XVI asrga tegishli Latifning hammomi ham diqqatga sazovordir. Bu hammom yer betida qurilgan. Shu kabi hammom qoldiqlari Samarqand shahridagi Shohi Zinda majmuasini qazish chog'ida ham uchragan va u hammomning XVI asrda ziyoratchilar uchun qurilganligi aniqlangan[10].

Farg'ona vodiysining bu qismidan bunday inshoot topilishi va uni qurilgan davriy yoshi IX–XII tegishli ekanligi ajdodlarimizning bundan ming yillar oldin o'zlarining shaharsozlik va me'morchilik borasida bilim tajribaga ega ekanliklarini ko'ramiz.

Norin daryosi va Chortoqsoy yaqinida suvga yaqin joyda yashagan aholi dehqonchilik va ishlab chiqarish bilan mashg'ul bo'lgan. Dahyakota qishlog'i hududida Sirdaryo yuvib ketgan hududlarda, hozirgi qishloqning o'rnida, ayrim fuqarolarning xovli-joylarida, turli arxeologik topilmalar borligi aniqlandi. Qo'rg'oncha mahallasida yashovchi fuqaro Sharifjon Yo'ldoshev xovlisida doira shaklidagi inshoot qoldig'i topildi[11].

Rasadxona yoki sardobaga o'xshash bu inshoot qoldiqlari ham o'rta asrlar davriga taalluqli. Uning qurilishi somoniy va qoraxoniylar davridagidek pishiq g'isht ( musulmon g'isht ) dan qurilganligi aniqlanadi.

Inshootning o'lchamlari diametri 7,40 metr, ayrim joylari esa 6,60 metrdan iborat. Yer sathidan 1 metr chuqurlikda joylashgan. G'isht o'lchami qalinligi 3x14x28 smdan iborat. To'qqiz qator terilgan g'isht qatlami saqlanib qolgan. Devor suvoq qilinmagan. Pol qismiga esa, 15x30x3 smli pishiq g'ishtlarni mahorat bilan terilgan. Ayrim joylariga qopqoq sifatida 37x37x4 smli pishgan g'isht namunalari ishlatilgan. Yana bir diqqatga sazovor tomoni pol sathining o'rtasiga suv obdovuni olinib, maxsus g'ishtli ariqcha ishlangan va ariqchani inshootning

---

[10] Dala yozuvlari. Namangan viloyati Uychi tumani Dahyakota qishlog'i. 2019-yil.
[11] Рўзинов Б., Ражабова С ва бошқ.... – Б. 28.

shimoliy tomoniga quyiladigan qilingan. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Yahyo G'ulomov nomidagi Samarqand Arxeologiya instituti olimlari tomonidan ziyoratgoh hududida ham arxeologik shurflar ochishib qishloqning tarixi bo'yicha qiziqishdi va qishloq tarixi IX-XI asrlarga oid fan-madaniyati va hunarmandchiligi rivojlangan Farg'ona vodiysidagi aytib o'tilgan lekin nomi mavhum bo'lib kelayotgan 70 ta shaharlardan biri ekanligini isbotlab berishdi[12].

Ushbu tahlillar birlamchi bo'lib, yanada aniqroq va to'laroq ma'lumotlar olish uchun element analiz, spektroskopik, xromatografik va atom-adsorbtsion usullarda tekshirish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotchilar izlanishlari natijasida topilgan bu moddiy merosdan tashqari, ushbu hududning toponimi ham insonlarni qiziqtirishi tabiiy. Xususan, Dahyakota toponimi kelib chiqishi haqida bir necha xil fikrlar mavjud. Ulardan ayrimlarini keltirib o'tamiz: Dahiyakota - "o'n bir ota" deganidir. Ayni chog'da u Dahyakota – tirik g'oyib, aslida barhayot bo'lgan kishi demakdir. Dahyakota o'n bir og'aynilarni eng kenjasi degan rivoyatlar mavjud. Kattalari Ovchi Buva (O'nhayatda) Buva ota va Podsho ota Buvalar (Qirg'izistonning Aqsu tumanida), Ko'k to'nlik Buva, Mashhad Buva (O'nhayatda) va boshqalar. Dahyakota bilan bog'liq yana boshqa rivoyat bor. Norin daryosi Ovchi Buva degan manzilga yaqin joydan oqqan ekan. Og'a-inilar namozni Ovchi Buva huzurida o'qishgan. Bir kun suv toshqini tufayli Dahyakota namozga kechikib boradilar. Jamoat duo qilishib, tangridan daryoni sal naridan oqishini so'raganlar. Daryo nariroqda oqa boshlaydigan va "Norin" nomini oladi. Shuning uchun aytadilarki, Dahyakotada hech suv toshqini bo'lmaydi[13]. Shu rivoyat sababli bu hudud Dahyakota deb nomlanadi.

Xulosa qilib aytsak, arxeologik yodgorliklarni qurilganiga 1000 yilga yaqin vaqt bo'lsada saqlanib qolganligi o'sha davrda me'morchilik sohasi yaxshi rivojlanganli, shaharsozlik an'analari yuksak darajaga chiqqanligini ifodalaydi. bundan tashqari har ikkala inshoot ham boshqa shaharlardagi shunga o'xshash

---

[12] Рўзинов Б., Ражабова С ва бошқ..... – Б. 29.

[13] Dala yozuvlari. Namangan viloyati Uychi tumani Dahyakota qishlog'i. 2019-yil; Рўзинов Б., Ражабова С ва бошқ.... – Б. 30.

inshootlar bilan qurilish xususiyatlari deyarli bir xil. Demak, bu shaharlar orasida o'zaro madaniy aloqalar, savdo-iqtisodiy munosabatlar bo'lganligidan dalolat beradi.

Farg'ona vodiysida bronza davri o'ziga xos tarixiy taraqqiyotiga ega bo'lib, unda arxaik elementlar uzoq vaqt saqlanib qolgan. Farg'ona vodiysining turli joylaridagi qadimgi manzilgohlardan topilgan talay moddiy-ashyoviy, daliliy topilmalar bu fikr-xulosalarning to'g'ri ekanini isbot qildi. Bu manzilgohlar ichida eng mashhuri va yaxshi o'rganilgani Chust makonidir. Bu yodgorlik Chust shahridan ikki kilometr shimolda, G'ovasoy sohilida joylashgan ko'hna tepalik, ya'ni ko'hna kent, qishloq xarobasidir.

Chust madaniyati nomi bilan ma'lum va mashhur bo'lgan dehqonchilik madaniyatini goho bronza,ba'zida esa ilk temir davriga oid deb talqin qilib kelindi. Lekin, tabiiy fanlar yordamida olib borilgan tadqiqotlar natijasida, jumladan radikarbon analizlar hamda bronza buyumlarini spektral analiz qilish yo'li bilan Chust madaniyati juda uzoq davrni o'z ichiga qamrab olib miloddan avvalgi XVI – XV asrlardan to VII asrgacha davom etganligi aniqlanmoqda[14]. Demak, Chust yodgorligi davriy chegarasi miloddan avvalgi 2 ming yillikning oxiri – 1 ming yillikning birinchi yarmiga oid.

Vodiyda shaharsozlik madaniyatining dastlabki belgilarini aynan qadimgi dehqonchilik – Chust madaniyati yodgorliklarida uchratamiz. Bu madaniyat dastlab va eng ko'p o'rganilgan yodgorliklar nomi bilan Chust madaniyati deb ataladi. Eng birinchi o'rganilib, fanga kiritilgan Chust davri yodgorliklarining Farg'ona vodiysidan topilgan xarobalari tarixiy-arxeologik va xronologik jihatidan so'nggi bronza (jez) davrga mansubdir[15].

Chust manzilgohi ya'ni Bibiona yodgorligining hozirgi kundagi saqlanib qolgan yer maydoni 4,05 gektarni tashkil etadi. Arxeologik yodgorlik hududida qadimiy shifobaxsh buloq mavjud bo'lib, ushbu buloq Bibiona - qaynar buloq nomi bilan mashhur.

---

[14] Анорбоев А., Исломов Ў., Матбобоев Б. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 5.

[15] Юсупов И., Мирзаалиев Э. Наманган шаҳри тарихидан лавҳалар. – Наманган, 2010. – Б. 7.

Xalq tilida Buonamozor nomi bilan yuritiladigan bu manzilgox dastlab 1950 yilda arxeolog M. Ye. Vorones tomonidan tadqiq qilingan. 1951–1961-yillarda arxeolog V. I. Sprishevskiy tomonidan o’rganildi. So’ngra 1974–1982-yillarda Yu. Zadneprovskiy rahbarligida qidiruv ishlari olib borildi. 1982–1984-yillarda Akademik Ahmadali Asqarov boshchiligida o’zbekistonlik va petrogradlik olimlar tomonidan 500 kvadrat metrdan ortiq maydon ochib o’rganildi. Bu yodgorlikdan 2 yillik qazishmalar vaqtida 80 ta chuqur o’ra - omborlar ochildi va arxeologiya fani uchun g’oyatda qimmatli ma’lumotlar qo’lga kiritildi[16].

Buonamozor tekshirgan arxeolog olimlar tekshirgan olimlar uning yoshini turlicha talqin qilib kelmoqdalar. So’nggi tadqiqotlar natijasida Buonamozor yodgorligining yoshi miloddan avvalgi X–VIII asrlarga to’g’ri keladi, degan xulosaga kelindi.

Bu qadimiy shahardan sopol idishlarning 35 xil namunasi topilgan. Demak, bundan 3–3,5 yarim ming yillar muqaddam Chustda ham hunarmandchilik, madaniyat rivojlangan, undan keying davrlarda yana – yana taraqqiy etib borgan. Paxsa devorli uylar hamda chayla tipidagi imoratlar ularning istiqomatgohi bo’lgan. Dehqonlarning manzilgohlari paxsa va xom g’ishtdan ishlangan qalin, mudofaa devorlari bilan o’ralganligi bundan 30 asr oldin vodiydagi shaharsozlik madaniyatining dastlabki bosqichi bilan bog’lash imkonini beradi[17].

Tadqiqot natijalariga ko’ra, ibtidoiy odamlar, xususan, dehqonchilik bilan shug’ullanuvchi aholi orasida yer, suv, quyoshga munosabat juda kuchli bo’lgan. Buonamozordagi qadimiy buloq ham ilohiylashtirilgan bo’lib, odamlar diqqatini o’ziga qaratadi, ya’ni “Bibiona mozori“ deb nom olgani ham ana shu buloqni muqaddaslashtirish va ilohiylashtirish bilan bog’liq bo’lsa kerak. Buonamozor aholisi ibtidoiy jamoa tuzumida yashaganligi haqiqatga yaqin turadi. Binobarin, bu davrda erkaklar og’ir yumushlarni bajarganlar, ayollar esa jamoada katta rol o’ynab, jamoani boshqarganlar. Buonamozor manzilgohining topilishi va o’rganilishi jarayonida Farg’ona vodiysida, shu jumladan, Namangan vohasida

[16] Рўзинов Б., Ражабова С ва бошқ...... – Б. 17–18.
[17] Юсупов И., Мирзаалиев Э. Наманган шаҳри тарихидан лавҳалар.... – Б. 6.

bundan 2800 –3000 yil avval ota-bobolarimiz tog' oldi hududlarida soylar sohilida va buloqlar atrofida ilk bor sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanganliklari ma'lum bo'ldi[18].

Buonamozorda olib borilgan uzoq yillik tekshirishlar natijasida Chust madaniyatining kelib chiqishi bilan bog'liq bo'lgan masalaga aniqlik kiritildi. Ilgarilari bu madaniyatning kelib chiqishini Eron, Afg'oniston hududlaridan kelgan aholi faoliyati bilan bog'lashar edi. Endilikda uning izlari qo'shni hududlarda yashagan aholi, xususan, Janubiy Turkmanistonning ta'sirini inkor etmagan holda mahalliy aholi xo'jalik faoliyati zaminida shakllanganligiga va rivojlanganligiga ishonch xosil qilindi.

Shunday qilib, miloddan avvalgi I ming yillik atrofida O'rta Osiyoning shimoliy va sharqiy hududlarida alohida vohalardan iborat qadimgi dehqonchilik markazlari paydo bo'ladi. Bu manzilgoh egalari paxsadan qurilgan uylarda va chayla tipidagi kulbalarda yashaganlar. Shuningdek, devorlari paxsadan bir nechta tor xonalar va g'isht terilgan ba'zi qo'rg'onlar ham aniqlandi. Buonamozordagi ajdodlarimiz asosan yerto'la tipidagi uylarda yashaganlar. Bu davrda vujudga kelgan yirik manzilgohlar Koson, Axsikent va Zarafshon vodiysidagi Afrosiyob shahar manzilgohlaridir.

Hozirgi kunda Chust madaniyatining o'ziga xos mahalliy xususiyatlari va qo'shni hududlar Toshkent vohasidagi Burg'uluq (Burganli) madaniyati, janubiy O'zbekistonning Kuchuktepa madaniyati bilan aloqalari (B.X.Matboboyev) o'rganilmoqda [19].

Rivoyat qilishlaricha, Bibiona yurtning malikasi bo'lgan. Yana bu dargohda namoz o'qiganlarni tahqirlagan bir odamning fojeasi haqida rivoyatlar bor. Buloqning hosiyatini pisand qilmay, umri kulfatda o'tganlar haqida ham afsonalar mavjud. Shuning uchun Hazrat Bibiona bulog'i Chustdagi jamiki chashmalarning onasi, deyishimiz mumkin. Xalq orasida shunga o'xshash rivoyatlar ko'p.

[18] Рўзинов Б., Ражабова С ва бошқ...... – Б. 19–22.
[19] Chust madaniyati //www.wikipedia. uz

Bibiona ( Buonamozor ) Ushbu Bronza davriga oid Chust manzilgohi ya’ni Bibiona yodgorligi atrofida obodonlashtirish ishlarini amalga oshirib, qayta ilmiy tadqiqot ishlarini o’tkazishda yosh arxeolog tadqiqotchilarni jalb etish, nafaqat viloyatda balki Respublikamizning tashqi turizm yo’nalishi va xizmatini yo’lga qo’yish mumkin.

## 1.2. Mug’tepa va Munchoqtepa yodgorliklarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar

Qadimiy Kosonsoy shahri 2000 yildan ko’proq tarixga ega bo’lib, u uzoq o’tmishda Farg’ona vodiysida o’ziga xos xususiyatga ega ko’hna shaharlardan biri bo’lgan. O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Yaxyo G’ulomov arxeologiya institutining Axsikent ekspeditsiyasi olib borgan tadqiqotlar natijasida shu narsa ma’lum bo’ldiki, Kosonsoy havzasidagi eng qulay yerlar shu davrda o’zlashtirilib, dehqonchilik qilingan. Tarixchilarning ma’lumotlariga qaraganda, “Koson” tushunchasi “muayyan geografik chegara” degan mazmunni bildiradi. Koson shahrining qadimgi xarobalari Kosonsoy daryosi bo’yida, ikki qismdan iborat. Shahar va qal’aning to’rt tomoni baland devor bilan aylantirilgan. Shaharning arki-a’losi va salobatli mudofaa devorlarining qoldiqlari shu kunlarda ham qad ko’tarib turibdi.

Kosonsoy havzasining o’rta va quyi oqimlarida miloddan avvalgi X-IX asrlardan boshlab, sun’iy sug’orib dehqonchilik qilish intensiv yo’lga qo’yilgan, anchagina yerlar o’zlashtirilgan va dehqonlar yashaydigan qarorgohlar paydo bo’lgan. Keyinchalik, miloddan avvalgi III asrga kelib Kosonsoy havzasining quyi qismida shunday dehqonlar qarorgohi asosida poytaxt shahar Axsikent paydo bo’lgan. Miloddan avvalgi I asrda Kosonsoyning chap sohilida strategik jihatdan qulay tabiiy tepalikda, ya’ni hozirgi Mug’tepa (Mug’ qal’a) arxeologiya yodgorligi o’rnida qadimiy Koson shahriga asos solingan. U qadimgi Farg’ona podsholarining yozgi qarorgohi sifatida tarix solnomalariga kirgan. Eramizning VI asridan arablar istilosigacha Koson shahri Turk xoqonligining ishonchli vakillari tomonidan idora etilgan. Ushbu davrga doir shahar arki va qal’aning salobatli mudofaa

devorlarining qoldiqlari saqlanib qolgan. Shaharda kulolchilik, amaliy san’at va hunarmandchilik yuksak darajaga yetgan. IX–X asrlarga kelib shahar o’zining avvalgi siyosiy mavqeini yo’qota boshlagan. So’ngra u hozirgi Kosonsoy shahrining o’rniga ko’chgan hamda Kosonsoy vohasining iqtisodiy va madaniy markaziga aylanadi. Bu haqda qadimiy xitoy manbalarida, jumladan, sayyoh olimlar Chjan Syan, Suyan Szyan, arab tarixshunoslari Yaqubiy, Istaxriy, Maqsudiy Ibn Xurdodbek, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur asralarida, shuningdek XVI asrda yashagan tarixchi olim Muhammad ibn Vali Kosoniy, keyinchalik taniqli tarixshunos va sharqshunos olimlar N. Ya. Bichurin, M. Andreyev, V. V. Bartol’d, A. N. Bernshtam, N. A. Latinin, Yu. A. Zadneprovskiy, A. Anorboyev asarlarida ma’lumotlar mavjud[20].

Koson XII asrda poytaxt shaharlardan biriga aylangan. Bu yerda Qoraxoniylar davlatining xazinaxonalaridan biri joylashgan bo’lib, tanga pullar zarb qilingan. Temur va temuriylar davrida hamda so’nggi o’rta asrlarda ham Koson, yani Kosonsoy shahri shimoliy Farg’onaning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri bo’lgan Shu bilan birga Kosonsoy ilm-fan markazi hisoblanib, u yerda turli davrlarda 40 dan ortiq Kosoniy taxalluslari bilan shuxrat qozongan ulug’ insonlar yetishib chiqqan. XV-XVI asrlarda yashab ijod etgan mashhur olim tasavvuf ta’limoti yirik namoyondasi Maxdumi A’zam Kosoniy ham Koson diyorida tavallud topib kamolga yetgan. Bundan tashqari, ushbu diyordan Muhammmad Aminxo’ja Kosoniy, Muhammad ibn Vali Kosoniy va boshqa “Kosoniy” nisbasi bilan mashhur bo’lgan olim-u fuzalolar yetishib chiqqanlar[21].

Birinchi bo’lib Koson vayronalarini 1895-yilda N. Sherbenko - Kramarenko kelib ko’rdi. U o’z hisobotida boy arxeologik qimmatga ega bo’lgan materiallar olish mumkinligini qayd etgan. Qadimgi Koson qadimda Kushon deb yuritilgan. Kosondagi ilmiy izlanishlarni 1946-yilda A.N.Bernshtam davom ettirgan. Olimning fikricha shaharda madaniy qatlamlar balandligi 10 metrni tashkil etadi. Mug’tepaning 8 joyida ilmiy tekshirish ishlari olib borildi. A.N.Bernshtam Koson

---

[20] Ҳомидов Ҳ., Аширов А. Косонсой тарихи. – Наманган, 2012. – Б. 12.

[21] Юсупов И., Мирзаалиев Э. Наманган шаҳри тарихидан лавҳалар.... – Б.10 ; Рўзинов Б., Ражабова С ва бошқ.... – Б. 20–22.

eramizdan avvalgi davrlarda harbiy istehkom, madaniy markaz shahar poytaxti bo'lgan degan xulosaga keldi.

Kosonsoyni o'rganish 1951–1983-yillarda Yu. A. Zadneprovskiy tomonidan olib borildi. Olim o'z izlanishlarida shaharning madaniy qatlamlari eramizdan avvalgi II–I asrlar davrini, ya'ni antik davrini o'rgandi. Qazish ishlari natijasida qadimgi shaharning minorasi qisman ochildi. Yu. A. Zadneprovskiy Koson shahri miloddan avvalgi Davan podsholigining poytaxti bo'lgan va u IV–VII asrlarda Farg'ona davlatining markazi hisoblangan, degan fikrni olg'a surdi.

Hozirgi kunda Kosonsoy shahrining Mug' qal'a arxeologik yodgorligidan tashqari IX-XVII asrlarda yaratilgan Shayx Sulton Jaloliddin Somoniyning G'o'zapoya mozor masjidi majmui, Jome masjidi, Sadpiri Komil masjidi, Go'ngalak yer osti hammomi, Yusufxon Eshon maqbarasi va boshqa bir qator me'moriy obidalar mavjud. Koson–Kosonsoy shahri Farg'ona vodiysining shimoliy-sharqida joylashgan, xalq amaliy sa'nati, me'morchiligi, hunarmandchiligiga ega bo'lgan madaniyat maskani va Buyuk Ipak yo'lidagi qadimiy shahr sifatida o'zbek xalqi tarixida munosib o'rin egallagan.

Tarixiy yozma manbalar va olib borilayotgan arxeologik izlanishlar shuni ko'rsatadiki, Kosonsoy Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrizabz, Termiz, Toshkent kabi ko'hna shaharlar qatorida o'zbek davlatchilik asoslarining rivojlanishida hamda siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan taraqqiy etishida katta ahamiyat kasb etgan. Qadimiy Koson shahri miloddan avvalgi II asr o'rtalarida tog'oldi hamda vodiy dehqonlarining o'rtasidagi aloqa markazi, Farg'ona vodiysida hukmronlik qilgan Davan davlat, buyuk Kushon podsholigi, Turk xoqonligi Somoniylar, G'aznaviylar, Qoraxoniylar saltanatida markaz, harbiy-siyosiy markaz ilm-fan, hunarmandchilik, savdo, tijorat ishlari taraqqiy etgan shahar maqomiga ega bo'lgan.

Ma'lumki, qadimgi Koson o`rdugohining Mug'qal'a deb atalishi xususida mug' "Zardushtiy" qal'a, "Urdugoh" shahar degan ma'noni anglatadi. Devor tomonlarining uzunligi 160 metr, shahar devorlari siniq kontur shaklida bo'lib,

burchaklariga minoralar tiklangan. Aylana devorning qalinligi 15 metr bo'lganligi arxeologik tadqiqotlar orqali isbotlangan.

Bundan tashqari Kosonni (Mug'qal'a, Mug'tepa) ayrim olimlar Xitoy manbalariga tayanib qadimgi Farg'ona poytaxti-Guyshan (Guyshuan) bilan bog'laydilar. Haqiqatdan ham yozma manbalar hokim qarorgohi Guyshan (ba'zida Guyshan - Gyesay) shahrida deb xabar berganlar. Guyshan - Gyesay manbalar e'tiroficha, vodiy shimolida joylashgan. Yuqorida keltirganimizdek, manbalar xabaricha Farg'ona-Polona (Lona) hokimi qarorgohi Guyshanda joylashgan. Bu shahar deb Koson (hozirgi Kosonsoy va uni atrofidagi Mug' qal'a) shahri ko'zda tutiladi[22].

Guyshuan (Guyshan) va umuman Farg'ona poytaxt shaharlari haqida A.A. Anorboyev alohida, o'ziga xos fikrga ega. Unga ko'ra Guyshuan bir vaqtda ikki yerda joylashgan: biri Eski Axsi o'rnida bo'lib, Ershi shahrini keyingi nomlanishi Guyshuan deb atalgan; ikkinchisi hozirgi Koson o'rnida bo'lib, u ham Guyshuan deb nomlangan. 1989-yilda shu davrga oid tangalar xazinasi topildi. Xazina 36 dona fuluslardan iborat bo'lib, Somoniylar sulolasi davrida Buxoro, Samarqand va Farg'onada X asr ikkinchi yarmida zarb etilgan. Somoniylar davriga oid (o'lchamli) g'ishtlar, chirog'donlar, shisha idishlar tez-tez uchraydi. Bulardan tashqari yer osti shahar suv tarmoqlarining bir qismi (sopol quvurlar) va qoraxoniylar davriga oid hammom qoldiqlari topilgan bo'lib, ular Balandtepa III davriga oiddir[23].

2002 yilning kuz oylarida Kosonsoy shahrining qadimgi tarixini o'rganish bo'yicha Namangan viloyati Kosonsoy tumani, hozirgi Kosonsoy shahri yonginasida joylashgan Mug'tepa yodgorligi va uning atrofida arxeologik tadqiqotlar olib borildi. Arxeologik qazishmalar Mug'tepa yodgorligining g'arbiy qismida 1990-yil boshlangan birinchi qazish ishlarini kengaytirish bilan boshlandi. Maqsad shahar devorining ichki tomonidan ochib ko'rish, uning davriy sanasiga aniqlik kiritish va ko'proq ashyoviy dalillarni topishdan iborat edi.

---

[22] Матбобоев Б. Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти.... – Б. 277.
[23] Yuqoridagi asar….. – Б. 204.

Birinchi Kosonsoy arxeologik otryadi quyidagi tarkib bilan ishladi: A. A. Anorboev (otryad boshlig'i), F. Maqsudov (kichik ilmiy xodim), A.Ismanov (katta ilmiy xodim ); Sh. Nasriddinov (laborant ). Dastlab, 1990-yilda qazib ochilgan shahar mudofaa devorini yaxshilab tozalandi va qaytadan sinchiklab o'rganib chiqildi. So'ngra qazish ishlari mudofaa devorning ichida uning yo'nalishi bo'ylab, 10 metrga, sharq tomonga esa 5 metrga kengaytirildi. Natijada, shahar devorlarining davriy sanalariga va qurilish texnikasiga ba'zi-bir yangiliklar kiritildi.

Jumladan, shaharning eng qadim devori milodiy eraning birinchi asrlari boshida emas, balki miloddan avvalgi birinchi asrda qurilgan degan fikrga kelindi. Ikkinchi devor esa milodiy eraning IV-V asrlarida emas, balki milodiy eraning boshlarida qurilgan deyish mumkin. Bu fikrlarni birinchidan stratigrafik kuzatuv va arxeologik materiallar tasdiqlasa; ikkinchidan devorlarning qurilish texnikasi va materiallari guvohlik bermoqda. Shaharning uchinchi devori milodiy eraning V-VI asrlarida qurilganligiga shak-shubha yo'q. Bu davrga kelib shahar devorining qalinligi 6 metrga yaqinlashadi. Mudofaa devorning ichida, unga qadalgan holda kurilgan uy qoldiqlari topildi. Uyning devorlari xom g'ishtdan qurilgan bo'lib, juda yomon saqlangan. Lekin, bu uylarda uzoq vaqt odamlar istiqomat qilganligi ko'rinib turibdi. Devordagi uch qatlam qalin suvoqlar va uchta pol buni to'liq tasdiqlaydi. Shunday qilib, ilk o'rta asrlarda Mug'tepa yodgorligi o'rnida mustahkam devorlar bilan o'rab olingan poytaxt shahar joylashgan, - degan A. N. Bernshtamning fikri o'z kuchida qolmoqda[24].

Shu bilan birga Mug'tepaning shimoliy sharqida unga yondosh joylashgan Mug'qal'a yodgorligida ham arxeologik kuzatuvlar olib borildi. Qoraxoniylar davrida (XII asr) qurilgan mudofaa devorlar va burchlarning qoldiqlari hozirga kunlarda ham o'z salobatini yo'qotmaganligini guvohi bo'ldik. Arxeologik kuzatuv natijasida bu devorning qurilish texnikasiga aniqlik kiritildi. Ma'lum bo'lishicha devor xom g'ishtlar va 0,35, 0,15 m qalinlikdagi paxsadan qurilgan ekan. Shu bilan birga Mug'tepa atrofida, hozirgi Kosonsoy shahri o'rnida ham arxeologik

[24] Матбобоев Б. Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти….. – Б. 177.

kuzatuvlar olib borildi. Natijada, IX–X asrlarda oid hunarmandchilik buyumlarining parchalari topildi.

Xulosa qilib aytganda, miloddan avvalgi I asrda Kosonsoyning chap sohilida hozirgi Mug'tepa yodgorligi o'rnida qadimgi Koson shahriga asos solinadi. Koson Kosonsoyning chap sohilidagi tabiiy tepalik ustida, strategik jihatdan eng qulay joyda qurilgan bo'lib, qadimgi Farg'ona podsholarining yozgi qarorgohi sifatida uzoq yillar xizmat qiladi. Arxeologik materiallar va yozma manbalarining guvohlik berishicha milodiy eraning VI asridan boshlab, to arablar istilosigacha Kosonda Turk hoqonligining ishonchli davlat vakillari o'tirgan. Shaharning arki-a'losi va salobatli mudofaa devorlarining qoldiqlari shu kunlarda ham qad ko'tarib turibdi.

Tadqiqotlar davomida oz bo'lsada shahar hunarmandlari yasagan har-xil sopol idishlar topildi. Idishlar o'zining yasalish texnikasi va texnologiyasi jihatidan yuqori sifatli bo'lib, ularni shahar hunarmandlari yasaganligi ko'rinib turibdi. VIII asrning birinchi choragidan boshlab, to IX asrgacha Farg'ona vodiysi, xususan, Koson shahri arablar tomonidan bosib olinadi va mahalliy aholi islom diniga kiradi. IX-XI asrlarga kelganda qadimgi Koson shahri o'zining avvalgi siyosiy mavqeini yo'qotadi ya'ni manbalarda u poytaxt shaharlar qatorida tilga olinmaydi. Lekin, u Kosonsoy vohasining iqtisodiy va madaniy markazi sifatida hozirgi Kosonsoy shahri o'rniga ko'chadi. XII asrda esa Koson ko'p pog'onali Qoraxoniylar saltanatining poytaxt shaharlaridan biriga aylanadi. Bu yerda Qoraxoniylar davlatining xazinaxonalaridan biri joylashgan bo'lib, tanga pullar zarb qilingan.

Tadqiqotlar davomida oz bo'lsa-da shahar hunarmandlari yasagan har-xil sopol idishlar topilgan. Idishlar yasalish texnikasi va texnologiyasi jihatidan yuqori sifatli ekanligidan, aynan, mazkur hududda o'troq shahar madaniyatiga xos xususiyatlar, xususan, hunarmandchilik yuqori darajada taraqqiy etganligidan dalolat beradi. 1620-yilgi zilzila natijasida Koson shahri vodiyning Axsikent, Andijon, Marg'ilon shaharlari singari jiddiy talafot ko'radi. Hozirgi vaqtda bu shahar poytaxt o'rni Mug'tepa nomi bilan ataladi. Olib borilgan ishlar natijasida qadimgi qal'a shahar xarobalari va uni o'rab turgan mudofaa devorlari qoldiqlari

topilgan. Mug'tepaning umumiy maydoni 2,5 gektarni tashkil etgan. Hozirgi kunda qal'aning yemirilgan devorlari va burchaklari o'rnida kuzatuv bo'limi joylashgani aniqlangan.

Namanganda "Mug'tepa" arxeologiya majmuasi tashkil etilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimiz milliy madaniy va moddiy me'rosini o'rganish, uni qayta tiklash va yosh avlodga yekazish maqadida tariximiz haqida boy ma'lumot beruvchi arxeologik yodgorliklarga e'tibor kuchaydi. Bundan tashqari bu moddiy me'rosimiz jahonga tanitish obo'yicha ko'plab amaliy reja, yo'l xaritalari ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimiz turizm salohiyatini ham yanada rivojlantish uchun 2018 – yilning 2 – oktabrida Vazirlar Mahkamasining "Namangan viloyatining Kosonsoy tumanida "Mug'tepa" arxeologiya merosi ob`yektini muhofaza qilish va tadqiq etish majmuasini tashkil etish to'g'risida"gi 788 – sonli qarori qabul qilindi. Hujjat bilan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Fanlar akademiyasi va Namangan viloyati hokimligining: Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyining filiali sifatida "Mug'tepa" arxeologiya merosi ob`yektini muhofaza qilish va tadqiq etish majmuasini; majmua tarkibida ko'rgazma-ekspozitsiya va axborot-resurs markazini tashkil etish to'g'risidagi takliflar ilgari surildi[25].

Quyidagilar majmuaning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilandi: "Mug'tepa" arxeologiya merosi ob`yektini tegishli darajada muhofaza qilish, konservatsiyalash va asrab-avaylash, ob`yektda ochiq varaq va ruxsatnoma olgan arxeologlar tomonidan ob`yektda arxeologik qidiruv ishlari, arxeologiya qazishmalari va arxeologiya nazoratini tashkil etish, chuqur ilmiy-arxeologik tadqiqot natijalari asosida majmuaning ilmiy-tarixiy konsepsiyasini ishlab chiqish hamda amalga oshirish; respublika va xorijda ob`yektga oid saqlanayotgan manbalarni malakali mutaxassis va ekspertlar, olimlarni jalb etgan holda tadqiq etish, ular haqida batafsil ma'lumotlar bazasini yaratish va muntazam yangilab borish, xalqaro ilmiy anjumanlar tashkil etish, matbaa mahsulotlarini tayyorlash,

---

[25] Vazirlar Mahkamasining "Namangan viloyatining Kosonsoy tumanida "Mug'tepa" arxeologiya merosi ob`yektini muhofaza qilish va tadqiq etish majmuasini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori // www.lex.uz

ommaviy axborot vositalari, butunjahon Internet tarmog'i orqali keng targ'ib etish; tarixiy-ilmiy asoslar bo'yicha ob`yekt maketlarini tayyorlash, arxeologiya ashyolari, qadimiy qo'lyozma va toshbosma kitoblar, tarixiy dalil va hujjatlar, osori-atiqalar, zamonaviy ilmiy-tadqiqot ishlari, kitob va to'plamlar, video va foto hujjatlar hamda boshqa manbalar hisobidan ko'rgazma-ekspozitsiya tashkil etish, yuqori texnologiyalarga asoslangan axborot-resurs markazi faoliyatini samarali yo'lga qo'yish; turistlar, ilmiy tadqiqotchilar va tashrif buyuruvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, tarixiy ko'rinishni saqlagan holda ob`yektning muhofaza etiladigan hududidan tashqarida zamonaviy dam olish maskanlarini tashkil etish va ob`yektning turistik salohiyatini oshirish yuzasidan boshqa zarur chora-tadbirlarni ko'rish[26].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning diyorimizdagi mashhur, qadimiy manzilgohlar sanalmish arxeologik yodgorliklar bo'lgan Mug'tepa, Axsikent, Munchoqtepa kabi arxeologik yodgorliklar hamda o'lkadagi hunarmandlar tomonidan turli davrlarda bunyod etilgan me'moriy yodgorliklar ham o'tmishda bu hududda o'ziga xos sivilizatsiyaga erishilganligidan va boy madaniy taraqqiyotga ega bo'lganligidan dalolat beradi, deb ta'kidlaganliklari bejiz emas. Demak ushbu yodgorlik atrofida ham obodonlashtirish ishlarini amalga oshirib, qayta ilmiy tadqiqot ishlarini o'tkazishda yosh arxeolog tadqiqotchilarni zabt etish , Respublika miqyosida ichki va tashqi sayyohlik yo'nalishlarini ochish hamda xizmatini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'tgan asrning 70 – 80 - yillarida arxeolog olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy qazish ishlari natijasida qadimgi Koson shahri o'rnida “Ochiq osmon ostidagi muzey” barpo etish g'oyasi bo'lgan, lekin ayrim sabablarga ko'ra, bu g'oya amalga oshmay qolgan.

Shunga qaramay bugungi kunda qadimgi Koson shahri tarixiy va arxeologik jihatdan mukammal o'rganilib, shaharning ochilmagan sirlarini yoritish arxeolog olimlarimizning oldida turgan muhim vazifadir, desak aslo yanglishmaymiz.

---

[26] Vazirlar Mahkamasining “Namangan viloyatining Kosonsoy tumanida “Mug‘tepa” arxeologiya merosi ob`yektini muhofaza qilish va tadqiq etish majmuasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori // www.lex.uz

Qadimiy Bob (hozirgi Pop shahri) Farg'ona vodiysining Коsоn, Ахsiкеnt, Quva singari shaharlari bilan bir davrda shakllana boradi. IX asrga kelib vohaning yirik shaharlaridan biriga aylanadi. IX-XI asrlarda yashagan arab sayyohlari Ibn Хоrdаdbек va Istahriy tomonidan bitilgan yozma manbalarda Pop so'zi "Bob" deb tilga olingan bo'lib, bu arabcha "Darvoza" ma'nosini anglatadi. 983-yilda yozilgan noma'lum muallif qalamiga mansub "Hudud-ul-olam" ("Olam chegaralari" ) nomli kitobning "Movarounnahr viloyati va uning shaharlari" deb nomlangan qismida "Pop" so'zi yozilib, bu o'lka shimoliy Farg'onaning savdo yo'lida joylashgan obod shaharlaridan biri sifatida ta'riflangan. O'zbek adabiyotining namoyandalaridan biri Zahiriddin Muhammad Boburning dunyoga mashhur "Boburnoma" asarida Pop qo'rg'oni haqida ma'lumotlar uchraydi. Uning boshlanishida: "Axsining berk qo'rg'onlaridan biri Pop qo'rg'onidur. Popliklar Pop qo'rg'onini berkitib, bizga kishi yiborib-turlar…", degan jumlalarni o'qish mumkin[27].

Qadimgi Pop shahri hozirgi Sang qishlog'i o'rnida miloddan avvalgi III va II asrlar oralig'ida mavjud bo'lganligi qayd etiladi. Munchoqtepa yodgorligi Pop shahri yoxud qo'rg'oni qachon va qayerda bo'lganligini aniqlashda imkon bermoqda. Binobarin Pop shahri milodning boshlarida Sirdaryoning o'ng sohilida hozirgi G'ovasoyning eng so'lim joylaridan birida vujudga kelganligi ma'lum bo'lmoqda. Pop hududida butun dunyoga mashhur Munchoqtepa yodgorliklari - qadimgi arxeologik yodgorliklar majmuasi joylashgan.

Hattoki, Munchoqtepa ( Pop ) materiallari O'zbekiston Davlat tarixi muzeyida va 2002-yilda Yaponiyaning Tokio, Kioto shaharlarida namoyish etildi.

Umumiy Munchoqtepa yodgorliklari Namangan viloyati, Pop shahridan 2 km janubda, Sirdaryo bo'yida joylashgan. U Munchoqtepa, Balandtepa, Temirqasmoqtepa kabi qadimiy yodgorliklardan iborat. Hozirgi kunda Balandtepa va Munchoqtepa arxeologik yodgorligining bizgacha saqlanib qolgan shahriston qismi umumiy yer maydoni 33,4 gektarni tashkil etadi. Arxeologik qazishmalarga ko'ra, Balandtepa (I–VIII asrlar), Temirqasmoqtepa shahar xarobalari, Munchoqtepa esa shahar qabristoni ( I–VIII asrlar ) hisoblanadi.

---

[27] Рўзинов Б., Ражабова С ва бошқ. Наманган вилояти маданий мероси..... – Б. 15.

Balandtepada Namangan viloyat o'lkashunoslik muzeyi xodimlari I. Malenkov va A. Shlezlar izlanishlar bilan shug'ullandilar Arxeologik qidiruv ishlari esa, 1946-1948 va 1950-1952-yillar A.N. Bernshtam rahbarligida Ayritom, Munchoqtepa, Balandtepa yodgorliklarida olib borildi. Munchoqtepada M.E. Voronets arxeologik qazishmalar olib bordi va qazishma natijalariga ko'ra Balandtepa X-XI asrlarga oid shahar xarobasi deb aniqladi.

Shunday xulosaga A.N. Bernshtam ham kelib, hozirgi Pop shahri yaqinida taxminan 12 kv.km maydonda yirik shahar qad ko'targanligini e'tirof etgan. Arxeolog Inqilob Axrorov ham Balandtepada ayrim arxeologik kuzatuv ishlarini olib borgan. Akademik Ya. G`ulomov rahbarligidagi Farg'ona arxeologik otryadi a'zolari Farqiz, Munchoqtepa kabi antik davr shahar xarobalari bilan tanishadilar.

1983-yilda M. X. Isomiddinov Balandtepada tadqiqot ishlari olib borib, yodgorlik tarhini oldi va kichik qazuv ishlari o'tkazdi. Bu yodgorlikni Farg'ona tarixini va madaniyatini o'rganishdagi muhim ahamiyatli bo`lib, 1987-yilda Axsikent otryadining moliyaviy yordami bilan ushbu yodgorliklarda arxeologik qazishma ishlari boshlandi. 1987–1994-yillari davomida bu yodgorliklar majmuasida ilmiy qidiruv ishlari olib borildi. Asosiy e'tibor Pop shahrining tarixi bilan bog`liq yodgorliklarni o'rganishga qaratildi. Asosan qazishma ishlari Balandtepada o'tkazildi. Yodgorlik to'rtburchak shaklli tarhga ega, balandligi ba'zi joylarda 13 metrgacha boradi. Yodgorlikning uchdan birini, ayniqsa arkning katta bo'lagini Sirdaryo yuvib ketgan, ammo uning saqlanib qolgan qismining rel'yefida uning ark ekanligi kuzatiladi. Natijada bizga shahar tuzilishining quyidagi tarkibiy bo'laklari ma'lum bo'ldi:

Ark - Balandtepaning janubiy-sharq tomonida joylashgan, deyarli yarmi buzilib ketgan tepa holida saqlangan. Shahriston (yoki ichki shahar) - Balandtepaning shimol va shimoliy-g'arb tomonida saqlangan, ammo uning shimol, g'arb va janub tomonlari buzilib ketgan. Ark bilan shahriston o'rtasidagi qadimgi xandaq o'rnida hozir chuqur jarliklar paydo bo'lgan. Rabod (yoki tashqi shahar) - Balandtepadan shimol va g'arbdagi hudud, uni mahalliy aholi

Munchoqtepa - Ayirtom shahri, Temirqasmoqtepa deb ham yuritadi. Shaharning bu qismidan o'rta asrlarga oid materiallar borligi aniqlangan.

1987–1994-yillarda Munchoqtepa yodgorliklari qabristonida ilmiy-qidiruv ishlari olib bordi. Qadimgi qabriston Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida, hozirgi Pop shahridan 1,5-2 km janubi - g'arbda joylashgan. Ammo qabristonning ustki qismida uning mozorligini bildiruvchi biror tashqi belgi saqlanmagan. Qabrlar ustiga uyulgan tuproq uyumi davr o'tishi bil an tekislanib, uning maydonidan xo'jalik maqsadlarida foydalanilgan. Faqat bizgacha ikki shimoliy-sharqiy va janubiy-g'arbiy tepaliklarida qabriston saqlanib qolgan. Ular shartli ravishda Munchoqtepa I, II deb nomlandi. Munchoqtepa I da yakka holda ko'milgan qabrlar, Munchoqtepa II da esa tabiiy tepa bag'rida qurilgan sag'analar, V-VIII asrlarga oid yer osti xilxonalari kavlab ochildi aniqlandi. Ularni bunyod etishda loy, g'isht, yogoch kabi qurilish materiallaridan foydalanilmagan. Yer osti sag'analari ustida ostadon va xumga solib jasadlarni ko'mish bilan bog'liq qabrlar ham qayd etildi. Demak, Munchoqtepa yodgorliklaridan topilgan buyumlar ko'hna farg'onaliklarning xo'jalik yuritish, turmush tarzi va eng asosiysi islomga qadar mavjud bo'lgan dafn marosimlari xususida muhim ma'lumotlar beradi[28].

Yer ostiga qurilgan sag'analar noyob muhandislik–quruvchilik inshooti namunasidir. Bu yerdan topilgan noyob topilmalarning xalqimiz tarixini o'rganishdagi ulkan ahamiyatini hisobga olib, ularni saqlash uchun Pop shahrida arxeologiya muzeyi tashkil etilgan.

1987 – 1989-yillarda Munchoqtepadan topilgan nodir ashyolar jahonshumul tarixiy va arxeologik ahamiyatga ega bo'lib, Munchoqtepa “Buyuk Ipak yo'li“ xalqaro ekspeditsiyasi xaritasiga kiritildi. Munchoqtepa yoxud Pop sag'anasi (ba'zan Danu dafinasi deb nomlangan xazina ) o'chog'ini topish shundan ro'y berdi. Bu yerda 1987-yildan akademik A. Asqarovning umumiy rahbarligida ish boshlangan. 1989-yil may oyi oxirlarida Respublika Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti ilmiy xodimi Boqijon Matboboyev boshliq Namangan Arxeologiya ekspeditsiyasining Pop otryadi xodimlari shu tepalikning shimolida

---

[28] Матбобоев Б. Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти…. – Б.72.

joylashgan ikkinchi tepalikda V-VI asrlarga oid qabristonda qazish ishlarini olib borayotgan paytda tasodifan tashlama suvlar ta'sirida paydo bo'lgan yonbag'irdagi jarlikda xom g'ishtdan tiklangan devorlar iziga duch keladilar. So'ngra bu tepalikda ham qazish ishlari boshlanadi. Ichki devorda na g'isht, na boshqa biron qurilish ashyosi ishlatilmagan bu sag'analar lahm qilib qo'yilgan. Bir yarim ming yil muqaddam dafn etilgan murdalar ehtiyotkorlik bilan olib chiqildi.

Munchoqtepa turkumidagi shimoliy-sharqiy tepalikning markazida 1987 yili qazishma boshlanib, bu joy Munchoqtepa I deb belgilandi. Dastlab ushbu maydonda 6 ta, 1988 yili esa 8 ta qabr, hammasi bo'lib 14 ta qabr ochib o'rganildi. Yakka holda qo'yilgan qabrlarni o'z tuzilishi va xususiyatlariga ko'ra ikkiga bo'lish mumkin:

1. O'ra shaklidagi go'rlar
2. Yorma shaklidagi go'rlar

Bu har ikki xil go'rlar joylashuvida ayricha bir o'ziga xoslik kuzatilmadi. Ya'ni o'ra go'rlar va yorma go'rlar aralashtirilib qo'yilavergan. Umuman olganda Munchoqtepa I qabristonida 14 ta yakka tartibda ko'milgan qabrlar o'rganildi. Ulardan 9 tasi oddiy go'r va 5 tasi yorma go'r (ayvonli lahad). Qabristonning юqori qatlamlari buzilgani uchun, go'rlar ustida dafn inshootlari bo'lgan-bo'lmagani haqida biror fikr aytish mushkul.

1988 – 1989-yillari Munchoqtepa II da sakkizta yer osti sag'ana kovlab ochildi Sag'analar va ularga tutash joylashgan qabriston o'rtasini keyinchalik suv yuvib jarlik hosil bo'lgan. Er osti sag'analari unchalik baland bo'lmagan tabiiy tepalikda, uning shimoliy-g'arb yonbag'iri bo'ylab tizilib joylashgan. Bu joydan 9 ta sag'ana topilib o'rganildi. Munchoqtepadagi sag'analar va ularga qo'yilgan qamish tobutlar ko'p xususiyatlariga ko'ra boshqa joydagilardan farq qilardi. Avvalo ta'kidlamoq lozimki, sag'analar va topilmalar hammasi ham birdek saqlanmagan.

Ma'lum bo'lishicha, sag'anada jami 47 ta tobut qo'yilgan, tobutlar har bir murdaga moslab qilib yasalgan. Ushbu sag'ananing o'zi yer ostida qurilgan bo'lib balandligi 2 metr, maydoni 15 kvadrat metrni tashkil qiladi. Qamish tobutlar

topilishining o’zi noyob hodisa bo’lib, shu kungacha bunday tobutlar topilmagandi. Tobutlarning o’lchamlari esa har bir marhumning bo’yiga qarab tayyorlanganligini ko’ramiz. Qamish tobutlar ichida eng uzun tobut 2,20 sm ga teng bo’lib, sag’ana ichiga yonma-yon qilib terib chiqilgan. Joy qolmagan taqdirda qavat qavat qilib terilgan. Marhumni qamish tobutga egnidagi libosi bilan chalqancha qo’yilgan, ba’zilarining yuziga ipak parda yopilgan. Bunday rasm-rusumlar ham noyob bo’lib, Xitoyning Sinyasizyan tumanida uchragani ma’lum. Shu bilan birga, qamish tobutlar yoniga marhumning u dunyoda yashashi uchun kerakli bo’lgan barcha narsalari va kasbi-koriga tegishli buyumlar bilan dafn etilganligining guvohi bo’ldik. Sag’ana ichidan topilgan buyumlar orasida asosan yog’och, sopol idishlar, savatlar va ro’zg’or buyumlari olindi. Bundan tashqari, sag’anaga aloqasi bo’lmagan ikkita qabr ochilganda, ularning birida odam suyaklari katta xum shaklidagi qozonga solib ko’milgan bo’lsa, ikkinchisi to’rt burchakli maxsus sopol idish – ostadonga solib dafn etilganligi aniqlandi. Bunday odat Zardushtiylik diniga xos bo’lib Farg’ona vodiysida uning izlari VII asrdan boshlab uchraydi. Bu topilmalar esa VIII – IX asrlarga oid edi. Zardushtiylarning urf-odatiga ko’ra murda maxsus joylarga qo’yildab yiritqich qushlarga yedirilgan. Etdan tozalagandan keyin esa suyaklar ostodonlarga solinib dafn etilgan[29].

Topilmalar bu erda odamlarning kulolchilik, to’qimachilik, dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik, hunarmandchilik, poyafzal tikish bilan shug’ullanganlaridan ham dalolat beradi. Shuningdek topilmalar orasida uchragan to’qimachilik usulida to’qilgan va ishlov berib bo’yalgan mato VII asrga oid emas, balki II–III asrlarga taalluqli ekanligini Xitoylik arxeolog mutaxasssis olimlar tomonidan aniqlanib, dunyo olimlari tomonidan tan olindi. O’zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti ilmiy xodimi B.Matboboev Xitoy Xalq Respublikasida bo’lib o’tgan Xalqaro anjumanda namoyish etdi. Ushbu noyob matoning nomi hozirgi tilda parcha atalib, uning vatani O’zbekiston ya’ni Pop hunarmandlarining mahsuloti ekanligi fanda o’z isbotini topdi.

---

[29] Матбобоев Б. Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти….. – Б. 55.

Mustaqillik yillarida yurtimiz hududidagi kichikroq arxeologik ob'ektlarda ham izlanishlar olib borildi. O'zbekiston arxeologiyasida o'z o'rniga ega bo'lgan yodgorliklar guruhi shakllanadi. Quyida ana shunday arxeologik yodgorliklardan keltirib o'tamiz. Umuman Shimoliy Farg'ona hududida ko'plab uchraydi.

Norin tuman Haqqulobod shahrining g'arbida Yaydoq qishlog'i hududida joylashgan. Yodgorlik asosan antik va ilk o'rta asrlarga oiddir. Yodgorlikning umumiy saqlanib qolgan maydoni 5,85 gektardan iborat. Namangan-Haqqulobod katta avtomobil yo'lidan 300-400 metrlar shimolda joylashgan. Dastlab 1981-yilda arxeolog M.K.Isomiddinov, 2003-yilda arxeologlar F.Maqsudov va S.Ashirovlar, 2005-yilda A.Anorboyev va Sh.Nasriddinovlar tomonidan qayta ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Yodgorlik asosan to'rt burchak shaklida bo'lib, mudofa devorlari bilan o'ralgan. Asosan janubiy va g'arbiy devorlari orasida minora qoldiqlari aniq bilinib turibdi. Sharqiy devori esa anchagina buzilgan. Shaharni uchta darvoza o'rinlari aniqlandi. Ularning biri sharqiy devorda, ikkinchisi shimoliy g'arbiy uchinchisi janubiy devorda joylashgan.

Ark yuqoriga ko'tarilgan bo'lib, shaharning boshqa qismidan aniq ajratib turadi. Shahar hududida ikkita maydoncha aniq qo'rinadi. Ularning biri shimoliy g'arb qismida, ya'ni shimoliy g'arb darvozasi atrofida, ikkinchisi shaharni sharqiy sharqiy qismida sharqiy devorga paralel ravishda cho'zilib ketgan. Bu ikki maydoncha o'rtasida uncha katta bo'lmagan yashash joylari joylashgan bo'lib, ular bir biriga ko'chalar orqali birlashgan. Shaharning qolgan qismlarida odatdagi yashash joylari xo'jaliklar joylashgan bo'lgan. Bu joylarning qoldiqlari uncha katta bo'lmagan tekis balandliklardan iborat. Shahar huddudida antik va o'rta asrlarga oid juda ko'plab qurilish va sopol siniqlari uchraydi, undan tashqari tosh yorg'ochoqlar, shuningdek somoniylar davriga oid sopollar ham uchrab turadi. Faqatgina shaharning ark qismida, asosan uning shimoliy qismida shaharning quyi qatlamlari haqida hulosa olish arxeologik qidiruv ishlarini olib maqsadga muvofiq bo'lar edi[30].

---

[30] Рахмонов З., Фармонова Г. Наманган вилояти археологик ёдгорликларининг жойлашуви қонуниятлари (Фарғона водийси тарихининг муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Наманган, 2012. – Б. 14–15.

Keyingi yillarda Namangan viloyatida arxeologik va madaniy ob`yektlarni o’rganish bo’yicha bir necha amaliy ishlar amalga oshirildi. Xususan, Namangan viloyatining Norin, Uchqo’rg’on, Pop, Uychi tumanlarida mavjud arxeologik yodgorliklarda ilmiy izlanishlar olib borildi.

Norin tuman Haqqulobod shahri hududida Kultepa arxeologik yodgorligi joylashgan. Yodgorlikning umumiy maydoni 2.60 gektardan iborat bo’lib, kunchiqar, ya’ni sharqiy tomonidan Andijon-Namangan temir yo’l tarmog’i o’tgan. Temir yo’lning narigi tomonida ham yodgorlikning davomiy qismi joylashgan bo’lib, u hududlar Andijon viloyatiga tegishli. Yodgorlik miloddan oldingi I va milodning V-VI asrlariga mansub bo`lib, yodgorlikni dastlab B. Latinin, Y. A. Zadneperovskiy va T. G. Obalduyevalar Eylaton shahrini o’rganish vaqtida tekshirganlar. Eylaton shahrining Arki, ya’ni markazi bo’lgan bo’lishi mumkinligini aytib o’tishgan. 1981-yilda M. X. Isomiddinov va B.Matboboyevlar, 2003-yilda arxeologlar F. Maqsudov va S. Ashirovlar ham yodgorlikda tekshirish ishlarini olib bordilar. A. Anorboyev va Sh. Nasriddinovlar tomonidan 2005-yilda tadqiqot ishlari olib borildi.

Ular yodgorlikning shimoliy tomoniga uzunligi 9 metr va kengligi 2 metr, chuqurligi 12 metr hajmda strotigrofik shurf tashladilar. Shurfda 26 ta har xil tuzilishga ega bo’lgan qatlamlar aniqlandi. Lekin faqatgina bitta qurilish davri aniqlandi, xolos. Qarorgoh doira shakliga ega bo’lib, rejada kvadrat shaklida ko’rinadi. Umumiy balandligi 16 metr. Mudofa inshootlari saqlanib qolmagan. Bo’ritepa - Norin tuman Bo’ston jamoa xo’jaligi fermerlar uyushmasi, To’lqin qishloq - (Sobiq Bo’ritepa va Chaqmoq qishlog’i) bu qishloq nomi payg’ambarlardan biri ya’ni Yunus allayhi salom nomiga ishora qilingan deb, rivoyat qilishadi. Yodgorlikning umumiy muhofaza hududi 0.93 gektardan iborat. Bu yodgorlik ham antik davriga mansub bo’lib, keragicha sopol idishlar, qizil angobli sopol parchalari, yorg’ochoq toshlarni qo’rishimiz mumkin. Bu yodgorlik ham bir gektardan oshiq yerni egallagan. Mahalliy aholining aytishlaricha tepalik ancha cho’kkanligini aytishdi. Oldin shurf tashlangan yerlarini o’rni turibdi. Yodgorlikni himoya hududi atrofiga o’tkazilgan tutzor va atrofidan o’tkazilgan

katta ariq va hovuzdan iborat va eradan avvalgi III-II va eramizning X-XI asrlariga mansub yodgorliklar toifasiga kiradi. Arxeologiya fani uchun juda boy ma’lumot olish va respublikadagi sanoqli yodgorliklar safiga qo’yish mumkin. Yodgorlikni 1980-yilda M.X.Isomiddinov, 2005-yilda A.Anorboyev va Sh.Nasriddinovlar tomonidan tekshirish ishlarini olib borilgan[31].

Norin tumani Bo’ston jamoa xo’jaligi fermerlar uyushmasi , To’lqin qishloq (Sobiq Bo’ritepa va Chaqmoq qishlog’i ) bu qishloq nomi payg’ambarlardan biri ya’ni Yunus alayhissalom nomiga ishora qilingan deb, rivoyat qilinadi. Yodgorlikning umumiy muhofaza hududi 0.93 gektardan iborat. Yodgorlikni 1980-yilda M.X.Isomiddinov, 2005-yili A.Anorboyev va Sh.Nasriddinovlar tomonidan tekshirish ishlari olib borilgan.Bu yodgorlik ham antik davrga mansub bo’lib, keragicha sopol idishlar, qizil angobli sopol parchalar, yorg’ochoq toshlarni ko’rishimiz mumkin. Bu yodgorlik maydoni ham bir gektardan oshiq yerni egallagan. Mahalliy aholining aytishicha, tepalik ancha cho’kkanligini aytishdi.oldin shurfa tashlangan yerlarni o’rni ko’rinib turibdi. Yodgorlikning himoya hududi atrofiga o’tkazilgan tutzor va atrofidan o’tkazilgan katta ariq va hovuz bor. Eradan avvalgi III-II va eramizning X-XI asrlarga mansub yodgorliklar toifasiga kiradi. Arxeologik fani uchun juda boy ma’lumot olish va yodgorliklar safiga qo’shish mumkin.

Yangiqo’rg’on tumani G’ovozon qishlog’ida joylashgan, antik va o’rta asrlarlarga mansub Qo’rg’ontepa-G’ovozontepa arxeologik yodgorlikdir. Yodgorlikning hozirda saqlanib qolgan qismi 3.50 gektardan iboratdir. Yodgorlikning katta qismi buzilgan. Ilk antik davr yodgorligiga mansub, mudofa inshootiga ega bo’lgan yodgorlik. 30 gektar atrofidagi yerni egallagan shahriston va qal’a kvadrat shaklidan iborat bo’lgan. Arxeologiya fani uchun eramizdan avvalgi IV-II asrlar davri uchun o’ta muhim ma’lumotlar olish mumkin. Bu yodgorlikni O’zbekiston Respublikasi FA Arxeologiya instituti ilmiy xodimi 1980 yilda M. X. Isamiddinov va 2004–2008-yillarda arxeolog Sh. Nasriddinov tomonidan ham o’rganilgan.

---

[31] Исомиддинов М. Х. Фарғона водийси археологиясининг айрим муаммолари..... – Б. 7–11.

Kuyuktepa arxeologik yodgorligi Uchqo’rg’on tumanining Qurama qishlog’i hududida joylashgan. Yodgorlikning saqlanib qolgan umumiy maydoni 1.28 gektardan iborat. Sharqiy tomonidan Katta Andijon kanali oqib o’tadi. Yodgorlik hududida dastlab rus arxeolog olimlari tomonidan o’rganilgan. 1981-yilda esa M.Isomiddinov tomonidan qayta o’rganildi. A.Anorboyev va Sh. Nasriddinovlar tomonidan 2005-yilda tadqiqot ishlari olib borildi.

Tariqmozor tepa – Uychi tuman Qizil robot tajriba xo’jaligi hududida joylashgan. Antik va ilk o’rta asrlar davriga mansub arxeologik yodgorlik. Umumiy yer maydoni 1.85 gektar. Dastlab yodgorlik sifatida ro’yxatga olinmagan. 2003-yil tomonidan aniqlandi, hamda 2005-yilda arxeologlar A.Anorboyev va Sh.Nasriddinovlar tomonidan o’rganilib, ma’lumotlar to’plandi. Namangan-Uchqo’rg’on avtomobil yo’lining janubida, dalaning o’rtasida, aholi yashash punktidan 150-200 metrlar uzoqlikda joylashgan. Mahalliy aholi tariqmozor deb nomlashadi. Yodgorlik ikki yarusdan iborat bo’lib, janubiy g’arb tomonida vishka (ark), janub va shimol tomonlarida esa ko’xandiz qismi mavjud. O’rta asrlarga oid sopol siniq qoldiqlari topildi. Arkning g’arbiy tomoni qismidan kuygan qatlamlar hamda kul qatlamlari qo’rinib turibdi. Arkning sharqiy tomonida handaqni eslatuvchi chuqur o’ra-jar qo’rinadi. Ark alohida ajralgan holda bo’lgan. Ushbu yodgorlik viloyatimizda kam uchragan va saqlanib qolgan asosiy arxeologik yodgorliklardan biri hisoblanadi. Bu arkli yodgorlikni mutaxassis arxeologlar tomonidan ilmiy asosda o’rganish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi kunda yodgorlikdan mahalliy aholi qabriston sifatida foydalanib kelmoqda.

Namangan viloyati Uychi tuman Qahramon MFY hududida Nog`oratepa arxeologik joylashgan. 1.25 gektardan iborat bo’lib, deyarli shikastlanmagan, uch yarusli, qisman sharqiy tomonidan yerni kengaytirish maqsadida o’zlashtirilgan. Yodgorlikdan 50-100 metrlar uzoqlikda ham antik va o’rta asrlar davriga mansub qizil, oq, qora angobli sopol siniqlari, tegirmon toshi siniqlari, tosh yorg’ochoqlarni uchratish mumkin. Ushbu katta hajmdagi yodgorlikda qo’rg’on qoldiqlari, qa’la devorlarining o’rni va ark (sitadel)ning qoldiqlari saqlanib qolgan, hamda ular yaqqol qo’zga tashlanib turibdi. Yodgorlikning sharqiy tomonida esa

antik va o’rta asrlarga oid “Oqtepa“ arxeologik yodgorligi ham mavjud. 1980 yilda arxeolog M. Isomiddinov tomonidan o’rganilgan. Keyinchalik 2005-yilda A. Anorboyev, Sh. Nasriddinovlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi[32].

Biz o’rganayotgan ushbu arxeologik yodgorliklar nafaqat Shimoliy Farg’ona balki butun O’zbekiston tarixi uchun juda ahamiyatli bo`lib, bu yodgorliklarda amalga oshirilayotgan tadqiqotlar va ularni natijalari haqida kengroq yoritish kerak.

---

[32] Рўзинов Б., Ражабова С ва бошқ..... – Б. 30–31.

# II BOB. AXSIKENT ARXEOLOGIK YODGORLIGI HAQIDA

## 2.1. 1980–2016-yillar oralig'ida Axsikent yodgorligidagi arxeologik izlanishlar

Ajdodlarimiz qoldirgan moddiy va madaniy ashyolar shu qadar rang-barang va behisobki, bunga arxeologik yodgorliklar yaqqol misol bo'la oladi. Bu yodgorliklar bir necha ming yillik tariximizning sirli sahifalari, bobolarimiz qadoq qo'llarining zaminda qolgan o'chmas izlari, otalarimizning madaniy merosi, o'z davridagi go'zallik olamining mezonidir. O'lkamizdagi har bir arxeologik yodgorlik, tepaliklar xalqimizning o'tmishdagi boy madaniyati va san'atini saqlab qolgan bebaho xazinalardir.

Buyuk ipak yo'lining gullab-yashnashida poytaxt shaharlarning ahamiyati katta bo'lgan. Bu borada qadimgi Farg'ona o'lkasining poytaxti Axsikent diqqatga sazovordir. Uning xarobalari To'raqo'rg'on va Jomasho'y orqali o'tadigan Namangan-Farg'ona yo'lining ikki tomonida, Sirdaryoning o'ng sohili bo'ylab cho'zilib ketgan baland tepaliklar ko'rinishida yotibdi.

Qadimshunos olimlar tomonidan "Farg'ona Afrosiyobi", deya ta'rif berilib, Axsi yoki Axsikent nomi bilan ataluvchi ko'hna shahar xarobalari bugungi kunda To'raqo'rg'on tumanidagi Shahand va Gulqishloq qishloqlari orasida, Sirdaryoning shimolida do'ngtepaliklar ko'rinishida yastanib yotibdi. Mazkur Eski Axsi manzilgohi Farg'ona vodiysidagi eng yirik arxeologik yodgorlik hisoblanadi. Manzilgohni qazib o'rgangan qadimshunos olimlar moddiy – ashyoviy dalillar va eng ko'hna yozma xitoy manbalariga tayangan holda, shaharning paydo bo'lishini taxminan miloddan avvalgi III asrlarga to'g'ri kelishi ma'lumotini berganlar[33].

O'zbekiston Respublikasi FA Arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori A. Anorboyev Axsikentda uzoq yillar davomida ilmiy tadqiqot va qazishma ishlarini olib borishi natijasida ko'plab ilmiy maqola va risolalar chop etdi. Olim Eski Axsi manzilgohi qadimgi Xitoy tarixiy manbalarida ko'rsatib

---

[33] Юсупов И., Мирзаалиев Э. Наманган шаҳри тарихидан лавхалар. – Наманган, 2010; Анорбоев А., Исломов Ў., Матбобоев Б. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона. – Тошкент: Фан, 2001; Насриддинов Ш., Саидов М. Ахсикентнинг тарихий топографияси / Фарғона водийси тарихининг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Фарғона, 2012; Анарбаев А. А. Изучение одного из ремесленных кварталов средневекового Ахсикента // ИМКУ. – Самарканд, 1999.

o'tilgan Davan (Farg'ona) davlatining poytaxti bo'lganini ilmiy jihatdan isbotlab berdi.

Ma'lum bo'lishicha, Turkistonning boshqa yirik shaharlari singari Axsikentning ham o'z qal'asi, shahristoni (ichki shahar) va raboti (tashqi shahar) bo'lgan. Qadimda shaharning to'rtta darvozasi bo'lib, ular Mardikush, Koson, Masjidi Jome' va Regxona deb atalgan. IX asrlargacha shahriston mudofaa devorlari bilan o'rab olingan va uning qalinligi 5–10 metrlargacha borgan, balandligi 20 metrgacha yaqinlashadi. Mashhur sayyoh va olim Yoqut Hamaviy (1179–1229-yillar) "Mo'jam al-buldon" nomli asarida Farg'ona haqidagi al-Istahriyning so'zini keltirib shunday deb yozadi: "Agar siz shahar o'rtasidagi katta qo'rg'onga chiqib, undan Farg'ona atrofiga nazar solsangiz, xuddi qog'ozga chizilgan xaritaga yoki rangli suratga o'xshagan bir manzaraga ko'zingiz tushadi. Bu o'lkaning bosh shahri (poytaxti) Axsikatdir. Axsikat Farg'ona tomonda bir ulug' shahar bo'lib, Sayxun (Sirdaryo) daryosining yoqasidagi tekis go'zal vodiyga joylashgan. Ulkan mudofaa istehkomiga ega muhtasham va mustahkam shahardir".

Ushbu maskanni Zahiriddin Muhammad Boburning otasi Umarshayx Mirzo ham poytaxt qilgan. "Boburnoma" asarida Umarshayx mirzo poytaxt qilgan Axsini Bobur quyidagicha tasvirlaydi: "...Sayxun suyining shimoli tarafidag'i qasabalar: bir Axsidur. Kitoblarda Axsikat bitirlar. Nechukkim, Asiriddin shoirni Asiriddin Axsikatiy derlar. Farg'onada, Andijondin so'ngra mundin ulug'roq qasaba yo'qtur. Andijondin g'arb sori to'qquz yig'och (bir yig'och — taxminan 8,5 km masofaga teng) yo'ldur. Umarshayx mirzo muni poytaxt qilib edi, Sayxun daryosi ko'rg'onining ostidin oqar. Qo'rg'oni baland jar ustida voqe bo'lubtur. Handaqining o'rniga amiyq jarlardur. Umarshayx mirzokim, muni poytaxt qildi, bir-ikki martaba tashqarroqdin yana jarlar soldi. Farg'onada muncha berk qo'rg'on yo'qtur. Mahalloti qo'rg'ondin bir shar'iy yiroqroq tushubtur...[34] ".

Axsikentni arxeologik jihatdan o'rganish ishlari XIX - asr oxirlari XX - asr boshlaridan boshlangan. Axsikentda 1885-yilda birinchi arxeologik qazish ishlari amalga oshirilgan. Dastlab, Peterburg universitetining professori, taniqli arxeolog

[34] Zahiriddin Muhammad Bobur.Boburnoma. – Toshkent : O'zbekiston. 2008. – B.14.

va sharqshunos N.Veselovskiy ish olib borgan. 1913-yilda I.Kastan`e tomonidan navbatdagi qazishma va tadqiq ishlari o'tkazildi. 1939-yilda Katta Farg'ona kanali qurilishi davrida professor M.Masson bu yerda arxeologik razvedka ishlari bilan shug'ullandi. 1960-yildan esa O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi Yahyo G'ulomov boshchiligida mutaxassislar Axsikentda arxeologik qazishma ishlarini amalga oshirishdi.

"Axsikent" arxeologiya ob`yekti merosini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi direktori, tarix fanlari nomzodi, dotsent Tohirjon Qozoqovning aytishicha, ushbu maskan ko'p yillardan buyon XIII asrdagi mo'g'ullar bosqini natijasida vayrona qilingan deb hisoblanar edi. Ammo shahar oradan 400 yilcha vaqt o'tib, 1620–1621-yillardagi kuchli zilzila natijasida vayron bo'lgani oydinlashdi.

Hozirda Axsikent yodgorligi To'raqo'rg'on tumani, Shahand qishlog'ida, Sirdaryoning o'ng sohilida joylashgan. Tarixiy manbalarda aytilishicha, Axsikat shahri miloddan avvalgi III-II asrlarda vujudga kelgan, IX-X asrlar davomida Farg'ona vodiysining poytaxti hisoblanib turli davrlarda turlicha nomlar bilan atalib kelingan.

Axsikent tarixining eng rivojlangan davri X-XII asrlarga to'g'ri kelib aynan shu davrda ulkan shaharga aylangani arxeologik tadqiqotlar orqali isbotlandi. O'sha davrda Axsikent maydoni 400 gektarni tashkil qilib, Farg'onaning siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida katta rol o'ynaganligi aniq misollar bilan ko'rsatib berilgan[35].

Sirdaryoning shimoliy qismida joylashgan Axsikent barcha qadimiy shaharlarimiz singari uchta asosiy qismdan iborat bo'lgan. Shaharning ark, shahriston va rabot qismlari bo'lgan. Ma'lumki, shaharlarning ark qismida hukmdorlar, shahristonda esa shahar aholisi, turli ma'muriy binolar, masjid va madrasalar bo'lgan. Rabot qismi esa shahardan chetda joylashgan bo'lib, u yerda asosan karvonsaroylar va bozorlar faoliyat ko'rsatgan. Ayni paytda qadimda 140 gektardan iborat shaharning 70 gektarga yaqin vayronalari saqlanib qolingan. 35

---

[35] Анорбоев А., Исломов Ў., Матбобоев Б. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона..... – Б. 4.

gektardan iborat bo'lgan shahriston maydonidan 25 gektarga yaqin qismi saqlanib qolgan.

2000-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasining Farg'ona ekspeditsiyasi Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanidagi Eski Axsi ( Axsikent ) qishlog'ida arxeologik tadqiqotlar o'tkazadi.

Yodgorlik Namangan shahridan janub-g'arbdan 25 km janubda, Sirdaryo o'ng qirg'og'ida joylashgan. A1 ob'ekti 10x10 m maydonga ega bo'lgan, ammo keyin qazish arxeologik qazishmalar davomida sharq va shimol tomonga kengaytirildi. Natijada, jami qazilgan maydon 15 x 20 metrga teng, ya'ni 300 kvadrat metrni tashkil etadi, qazilgan maydon chuqurligi 0,7 dan 1,1 m gacha yetgan. 1 - xona. Bu yerda sharq va janubiy devorlarining qoldiqlari bor. Qoldiqlarga ko'ra, xonada kamida ikki turar-joy maydoni bor edi. Qazuv ishlari davrida XV-XII asrlarga oid tarixga ega bo'lgan xarsangtoshlar, temir buyumlar va yirik va seramika keramika to'plamlari topildi.

